GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2025.27.12.Fil.38.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SUVANOV HUSNIDDIN NORQULOVICH

YOSH O‘ZBEK NASRIDA MILLIY KOLORITNING BADIIY TALQINI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Guliston – 2026

UDK: 821.512.133.09

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Suvanov Husniddin Norqulovich
Yosh o‘zbek nasrida milliy koloritning badiiy talqini…….....…..…….……3

Suvanov Husniddin Norqulovich
The Artistic Interpretation of National Color in Young Uzbek Prose.....23

Суванов Хусниддин Норкулович
Художественное воплощение национального колорита в молодой узбекской прозе.….....45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ….....49

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/2025.27.12.Fil.38.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SUVANOV HUSNIDDIN NORQULOVICH

YOSH O‘ZBEK NASRIDA MILLIY KOLORITNING BADIIY TALQINI

10.00.14 – XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Guliston – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3360 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Guliston davlat universiteti vebsahifasining (www.guldu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Miliyev Suvon** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qo‘yliyeva Gulchehra Nazarqulovna** filologiya fanlari doktori, dotsent
	Allambergenov Anvar Erkabayevich filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.38.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99867) 225-40-42; faks: (99867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (67) 225-40-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.G. Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

A.R.Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O.X.Fayzullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida badiiy asar mohiyatini yoritishga doir masalalar, xususan, milliy koloritning o‘ziga xosligi masalasi filologlarning e’tiborini tobora ko‘proq jalb qilmoqda. Ayniqsa, gumanitar sohalarda muayyan adib ijodi, badiiy asar va uning obrazlar sistemasini yoritishning yangi metod va usullariga ehtiyoj sezilmoqda. Shu boisdan adabiyotshunoslik fani o‘z obyektiga yangi nigoh bilan qarash orqali milliy koloritning o‘ziga xosligi muammolarini chuqurroq ochib berish yo‘lidan bormoqda, bu esa yangi metod va usullarning paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Zero, milliy koloritning o‘ziga xosligini chuqur talqin etish insonning ma’naviy olami, dunyoqarashini, shuningdek, ijodkorning tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida, xususan, milliy koloritga badiiy-estetik kategoriya sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, nosir asarlarining adabiy evolyutsiyasini yangicha anglash kun tartibiga chiqmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan badiiy obraz, tasvir va ifodaning yangicha istifodasi bilan bog‘liq. Badiiy adabiyotda milliylikni to‘laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg‘or ijodiy prinsiplariga xos jihatlar namoyon bo‘lmoqda. Adabiy jarayonda milliy koloritni to‘laqonli aks ettirishda badiiy asarning tutgan o‘rni, uning sohir tuyg‘ulari, inja va murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. Shu bois muayyan obraz ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqinini ochib berish ushbu yo‘nalishdagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek adabiyotining xalqaro maydonda munosib o‘ringa egaligi milliy madaniy-ma’rifiy merosini tadqiq etish, qadriyatlarni anglash zarurati bugungi globallashuv jarayonida badiiy adabiyotning mohiyatiga yanada chuqur kirib borish, nasriy asarlarning jahon adabiyoti rivojida munosib asoslash bilan ifodalanadi. Keyingi davr adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan ijodkorlar merosini o‘rganishni taqozo etmoqda. Bugungi madaniy-ma’rifiy sohalardagi islohotlar jarayoni o‘zbek adabiyotshunosligi oldiga ham bir qator yangi vazifalar qo‘ymoqda. “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”[1]. Shu nuqtayi nazardan, keyingi davr adabiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazgan ijodkorlar merosini yangicha nazariy asosda qayta yoritish, ularning ijodidagi milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligini ochib berish, shuningdek, o‘zbek nasrini jahon adabiyoti kontekstida qiyosiy tahlil qilish bugungi kun uchun dolzarb ishlar sirasiga kiradi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. 23 декабрь.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF – 4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF – 60-son “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 18-apreldagi PQ – 2894-son “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ – 3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ilmiy tadqiqot Respublika fan va texnika rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish, ularni amalga oshirish yo‘llari ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida milliy kolorit masalasi, avvalo, badiiy asar tabiati va badiiy asarda xalq hayotining ifodalanishi bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Adabiyot nazariyasi milliy koloritni tarixiy jarayon, zamonaviylik bilan doimiy aloqada shakllanadigan badiiy-estetik tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Milliy kolorit ham asardagi kiyim-kechak, taom, marosim, joy nomlari, nutq shakllari, ijtimoiy munosabatlar va ramziy obrazlar orqali yuzaga chiqadigan madaniy kodlar majmuasidir. Ushbu nazariy yondashuvlar o‘zbek yoshlar nasrida milliy koloritning badiiy talqinini chuqur, qiyosiy va tizimli o‘rganish uchun zarur ilmiy-metodologik asos yaratadi[2]. Shularga

[2] Мели С. Сўзу сўз. Адабиёт фалсафасига чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 528 б.; Мели С. Яратганнинг нуридир илм // Ёшлик. – Тошкент, 2021. № 8.; Саримсоқов Б. Ертак олдин яралганми ё достон? // Тафаккур. – Тошкент, 1998. № 4. – 64 б.; Тошева Н. Ҳозирги ўзбек насрида фольклорга оид воситаларнинг поэтик функцияси. (Исажон Султон насри мисолида). филол.ф.ф. доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – В. 14.; Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари. Мавзу, муаммо ва ечим // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2011. № 4. – 147 б.; Uzoqov A. O‘zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol.f.f. doktori (PhD) diss... avtoref. – Guliston, 2023. – 149 b.; Shukurova B. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzayev, E. A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida). Filol.f.f. doktori (PhD) diss... avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 13.; Сайитқулов И. Ўзбек халқ тарихий насрида эпик сюжет ва образ эволюцияси (Темурнома мисолида). Филол.ф.ф.доктори (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2020. – 55 б.; Кенгбойев Ж. Ҳар бир авлоднинг ўз мавзуси бўлади // Ёшлик. – Тошкент, 2016. № 3.; Нормурод Н. Анвар Суюннинг Оқтирноқ ҳикоясини ўқиб… // Ёшлик – Тошкент, 2021. № 8.; Милиев С. Глобал илмий-бадиий талқин поэтикаси. Филол.ф.доктори (DSc) дисс... – Тошкент, 2020. – 206. б.; Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida). Filol.f.f. doktori (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2023. – 21. b.; Djurakulova E. Shoyim Bo‘tayev romanlarida syujet va kompozitsion yaxlitlik. Filol.f.f. doktori (PhD) diss... avtoref. – Samarqand, 2023. – 22. b.; Babayeva S. Isajon Sulton romanlarida badiiy tafakkur tadriji. Filol.f.f. doktori (PhD) diss... avtoref. – Guliston, 2024. – 10. b.; Wellek R., Warren A. Theory of Literature. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1949. – P. 38-41; Bakhtin M.M. The Dialogic Imagination: Four Essays. Ed. by M. Holquist; trans. by C. Emerson and M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1981. – P. 84-258; Said E.V. Orientalism. – London: Routledge & Kegan Paul, 1978. – P. 1-28; Bhabha H.K. The Location of Culture. – London; New York: Routledge, 1994. – P. 1-18; Beller M., Leerssen J. eds. Imagology: The Cultural Construction and Literary Representation of National Characters. A Critical Survey.

qaramasdan yangi avlod ijodiy namunalari milliy kolorit nuqtayi nazaridan o‘rganilgani maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi rejasining “Hozirgi adabiy jarayon masalalari” mavzusida ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yosh o‘zbek nasrida milliy koloritning badiiy talqinini ilmiy jihatdan asoslab berish, uning nosir ijodida namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ushbu talqinning jahon nasri ilg‘or ijodiy prinsiplari bilan uyg‘unlik va o‘ziga xoslik jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek yoshlari nasrida milliy koloritning badiiy talqinini Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidovalar asarlaridagi milliy adabiyotga oid jihatlarni ko‘rsatib berish;

mazkur adiblar asarlarida badiiy tasvirlash tamoyillari, usullariga oid jihatlarni aniqlab, bir-biri bilan farqli va o‘xshash jihatlarini ochib berish;

ijodkorlar hikoya, qissalarida asosiy va yordamchi obrazlarni badiiy tahlil me’yorlariga xos tarzda talqin qilish va uning koloritga oid xususiyatlarini belgilash;

yozuvchilar asarlari kompozitsiyasi hamda syujetidagi takomil yo‘li, Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidovalar asarlarida milliy koloritga xos original obrazlarni ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidovalarning hikoya va qissalari olingan.

Tadqiqotning predmetini Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidovalar hikoya va qissalarida milliy koloritni, obrazlar xarakteri, yozuvchilarning portret yaratish mahorati, obrazlar nutqi masalalarini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, germenevtik, struktural-analiz, etno-psixologik kabi metod va usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

– Amsterdam; New York: Rodopi, 2007. – P. 17; Quick C.S. Ethnopoetics // Folklore Forum. 1999. Vol. 30. – P. 95; Veselovsky A.N. On the Methods and Aims of Literary History as a Science // Yearbook of Comparative and General Literature. – 1967. Vol. 16. – P. 3342; Lotman Yu.M. The Structure of the Artistic Text. Trans. by G. Lenhoff and R. Vroon. – Ann Arbor: University of Michigan, 1977. – P. 300; Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари (талабалар учун ўқув қўлланмаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 26.; Қуронов Д., Мамажонов З., Шералийева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 221.; Safarov X. O‘zbek jadid hikoyalari poetikasi. Filol. f.f.d. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent. 2025. – 22 b.; Ўрозов А. Миллий қадрятларнинг бадиий жозибаси // Тафаккур. – Тошкент, 2010. № 3. – 119 б.; Норматов У, Болтайев Ҳ. Янгиланаётган адабий жараён // Тафаккур. – Тошкент, 2009. № 1. – Б. 68.; Ҳотамов.Н, Саримсоқов.Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Иккинчи нашр. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 241.

XXI asr o‘zbek nasrida Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidova ijodi misolida milliy koloritga xos mentalitetni o‘zida aks ettirgan obrazlar tizimining o‘ziga xos tasviriy uslub va badiiy struktura orqali shakllangani asoslangan;

yosh nosirlar asarlarida qahramonlar tabiati, prototip va portret yaratish mahorati hamda nutq individualligi masalalari aniqlangan;

zamonaviy nasrda milliy turmush voqeligining realistik talqini va milliy koloritning o‘ziga xos ifodasi asrning birinchi choragi uchun yangi adabiy hodisa ekani isbotlangan;

mazkur adiblar ijodida milliy ruhning yoshlar ongiga singdirilishi hamda badiiy tasvirlash tamoyillari qissa va hikoyalar tahlili orqali asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yosh o‘zbek nasrida milliy koloritning poetik talqinini badiiy jihatdan o‘rganish, Nurilla Choriyev, Anvar Suyunov, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidova hikoyalarida milliy mentalitetga munosib qirralarni adabiyotning tahlili nuqtayi nazaridan asoslab berilgan;

badiiy asarda milliy bo‘yoqlarning xususiyatlari, milliy qiyofa asoslarini ilmiy muammo sifatida yoritilishi aniqlangan;

badiiy asarda milliy xarakterni ifodalovchi omillarni ko‘rsatib berish va ularni stilistik jihatdan ifodalash, milliy koloritga xos ko‘rinishlar sharhi ochib berilgan;

badiiy asarni tahlil qilish jarayonida ijodkorlarning o‘ziga xos uslubi shuningdek, badiiy asarning milliy koloritga muvofiq bo‘lgan o‘rni real voqelik va milliy ruhda asosli yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda jahon va o‘zbek nazariyotchi hamda amaliyotchi olimlarining amaliy adabiyotshunoslikda erishgan ishonchli, nazariy jihatdan mukammal va amaliy natijador xulosalari asos qilinganligi tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, yechilishi lozim bo‘lgan muammolarning jahon adabiyotshunosligining eng so‘nggi yutuqlari asosida hal etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek badiiy adabiyotida Nurilla Choriyev, Anvar Suyunov, Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidova hikoya va qissalarida milliy koloritning o‘ziga xosligi yoritib berilganligi, ishning natijalari boshqa milliy sathdagi tasvirlarga bag‘ishlangan ishlar uchun nazariy manba bo‘la olishi, milliy kolorit ifodasi uchun zaruriy tushunchalar sharhining adabiyotshunoslik nazariyasi tamoyillariga hamda badiiy adabiyot mezonlariga muvofiqlashtirilganligi, shuningdek, badiiy adabiyotda milliy koloritga xos asoslarning o‘rni ilmiy asoslanib, uning turli ko‘rinishlari yoritib berilganligi o‘zbek adabiyotshunosligi nazariyasini yanada boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologik oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari uchun “Hozirgi adabiy jarayon”, “Istiqlol

davri oʻzbek adabiyoti muammolari” fanlari va oʻquv kurslari uchun darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, oʻquv-uslubiy majmualar tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlari nazariy bazasini shakllantirishda amaliy vosita boʻlib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yosh oʻzbek nasrida milliy koloritning badiiy talqinini ilmiy tadqiq etish natijalari asosida:

XXI asr oʻzbek nasrida Anvar Suyunov, Nurilla Choriyev, Sanjar Tursunov va Bibi Robia Saidova ijodi misolida milliy koloritga xos mentalitetni oʻzida aks ettirgan obrazlar tizimining oʻziga xos tasviriy uslub va badiiy strukturaning shakllanganligi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2021–2023-yillarda bajarilgan IL-402104474 “bolalaradabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-sentabrdagi 04/1-2016-sonli ma’lumotnomasi). Natijada yosh nosirlar ijodida obrazlar tabiati, prototipi, ijodkorning portret yaratish mahorati, shuningdek, nutq individualligi masalasi badiiy tahlil orqali aniqlangani, nosirlar oʻz asarlarida oʻzbeklarning milliy turmushi voqealari badiiy jihatdan real asoslab berilgani hamda undagi milliy koloritning oʻziga xosligi, shuningdek, sohada amalga oshirilgan ishlar orqali mavzu atroflicha yoritib berilgan; yosh nosirlar asarlarida qahramonlar tabiati, prototip va portret yaratish mahorati hamda nutq individualligi masalalari aniqlanganligi masalasidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2021 – 2023-yillarga moʻljallangan PF – 201912258 “Oʻzbek adabiyotining elektron platformasini yaratish” amaliy grant loyihasida foydalanilgan. Unda yosh nosirlar ijodida obrazlari tabiati, ularning prototipi, portret yaratish mahorati, shuningdek, nutq individualligi masalasi badiiy tahlil orqali aniqlangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 08 apreldagi 04/1-900-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, oʻzbek adabiyotining elektron platformasini yaratishning yangi qirralarining ochib berilishiga, xususan, oʻzbek yoshlari ijodidan foydalanishi, yangilangan adabiy tafakkur milliy kolorit masalalarini ochib berish imkonini yaratgan;

Zamonaviy nasrda milliy turmush voqeligining realistik talqini va milliy koloritning oʻziga xos ifodasi asrning birinchi choragi uchun yangi adabiy hodisa ekanligi, shuningdek, mazkur adiblar ijodida milliy ruhning yoshlar ongiga singdirilishi hamda badiiy tasvir tamoyillari qissa va hikoyalar misolida asoslab berilganligiga oid xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston” teleradiokanali” DM tarkibidagi “Oʻzbekiston tarixi” telekanali koʻrsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (02-06-1068-sonli 2024-yil 26-sentyabrdagi ma’lumotnoma). Natijada “Oʻzbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot”, “Mavzu” koʻrsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda milliy kolorit bilan bogʻliq masalalarga oydinlik kiritilgan. Bundan tashqari, yosh oʻzbek

nasrida milliy koloritning badiiy talqinini ilmiy jihatdan o‘rganish asoslangani yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 18 ta maqola, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika hamda 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 150 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Milliy kolorit tasvirida nasriy asarlarning ahamiyati”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bob ikki fasldan iborat. Birinchisi *“Nazariy adabiyotlarda milliy koloritga oid qarashlar evolyutsiyasi”* deb nomlangan. Ikkinchi fasli esa *“Yangi avlod nasrida milliy koloritga xos xususiyatlar”* deb nomlangan.

Adabiyotni yaratguvchisi ham, uning obyekti ham insondir. Muallif adabiyot mohiyatini badiiy adabiyot orqali ochib beradi. Epik, lirik yoki dramatik asar bo‘lishidan qat’iy nazar muallif yondashuvi, ayniqsa, asar sarlavhasi muhim vazifani bajaradi. Undagi sarlavha poetikasi ham o‘ziga xoslik kasb etadi. Tadqiqotchi Xolyor Safarov “O‘zbek jadid hikoyalari poetikasi” dissertatsiyasida shunday yozadi: “Badiiy asarning muhim elementlaridan biri sarlavhadir. Unda asarning butun mazmun-mohiyati aks etadi va sirli mayoq vazifasini bajaradi. Asar syujeti, tuguni va yechimi ayni shu mayoq atrofida jamlanadi”[3]. Badiiy asarni yetkazishda muallif yuksak tafakkur egasi bo‘lishi kerak. Muallifning saviyasi badiiy asarning sarlavhasi bilan bog‘liq. Sarlavha asar badiiy qimmatini orttiradi yoki tushiradi.

Badiiy adabiyot xalqning mavjud bo‘lgan barcha qirralarini yoritib berguvchi asosiy omil sanaladi. Milliy kolorit bilan bog‘liq hodisalar xalq ijodida ham

[3] Safarov X. O‘zbek jadid hikoyalari poetikasi. Filol.f.f.doktori. (PhD) diss... avtoref. – Toshkent, 2025. – B. 22.

[4] Панченко К. Ўзбек ҳикоялари рус тилида // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. № 2. – Б. 141.

uchraydi. Ham nazariyotchi, ham folklorshunos Bahodir Sarimsoqov “Tafakkur” jurnalida berilgan “Ertak oldin yaralganmi yo doston?” maqolasida shu muammoga yondashib shunday yozadi: “Qahramonlik eposining tarixiy asoslarini bahodirlik ertaklariga olib borib bog‘lash mohiyatan uni xalq tarixidan, real voqelikdan ajratib qarashga olib keladi. Chunki ertak syujeti sof badiiy to‘qimaga, xayoliy uydirmaga asoslansa, qahramonlik hamda tarixiy epos xalq tarixining nisbiy aniqlikdagi badiiy in’ikosidan iborat”[4]. Xalq ijodida milliy kolorit va qadriyatlar bilan bog‘liq masalalar ko‘tariladi. Undagi to‘qima va real hayot talqinida folklorga bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotdagi tasviriy vositalar ko‘lami insoniyat tomonidan o‘rganilgan va yana o‘rganiladi. Insoniyatni rang-barang dunyo o‘ziga jalb qiladi. XV asrda tasviriy san’atda kolorit termini paydo bo‘ldi. Bu yangi termin Italiyada paydo bo‘lgan edi. Bu yangilik esa Italiyada rassomlar tomonidan realistik rang-tasvirda “koloritizm” tushunchasi tasviriy san’at faniga kirib keldi. “Kolorit” – italiyancha so‘z bo‘lib, rang, bo‘yoq degan ma’nolarni bildiradi.

Ijodkor badiiy asarda badiiy tasvir vositalari orqali davr va muhitni aks ettiradi. Odamning kiyinishi, tashqi ko‘rinishi orqali qaysi millat vakili ekanligini bilish qiyin emas. Hattoki, tasvirlanayotgan badiiy asar asrlar davomida o‘rganilayotgan insonning ruhiy holatini aks ettiradi. Kolorit biror hodisaning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Taniqli adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov “XXI asr nasri manzaralari. Mavzu, muammo va yechim” nomli maqolasida shunday yozadi: “Bundan yigirma yil avval jahon adabiyotining sinchkov bilimdoni, adabiyotshunos Tal’at Solihov (Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin) suhbatlaridan birida: “Nazarimda, asr adabiyotining poydevorida ikkita muhim narsa bo‘lishi kerak: biri – milliy an’ana, adabiyotimiz, san’atimiz sohasidagi milliy an’ana va ikkinchisi, jahon adabiyotining darajasi, jahon badiiy tafakkurining darajasi hamda jahon adabiyotida erishilgan tajriba. Ana shu narsalar poydevor asosi bo‘ladi, poydevorning poydevori bo‘ladi”,[4] deb orzu qilgandi. Dadil aytish mumkinki, bugun o‘zbek adabiyoti ko‘p asrlar mobaynida shakllangan milliy o‘ziga xosligini to‘la saqlagan holda, jahon adabiyoti tarkibiga qo‘shilish yo‘llarini izlab topish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Har qanday xalq adabiyoti kamolot cho‘qqisiga, o‘zi mansub bo‘lgan millatning madaniy, ma’naviy-ma’rifiy an’analariga qat’iy rioya qilishi, ularga hurmat bilan qarashi orqali erishadi. Bizda esa bunday an’analarning tuganmas xazinasi bor. Bu jarayon o‘lmas xalq og‘zaki ijodi, boy yozma adabiyotimiz, rang-barang axloqiy qadriyatlarimiz va milliy urf-odatlarimiz borligidan dalolat beradi.

Xalqning asl qiyofasini yuzaga chiqaruvchi xalqning koloritidir. Xalqimizning sevimli yozuvchisi O‘tkir Hoshimovning “Badiiy asarda milliy kolorit” deb nomlangan maqolasida adib quyidagicha fikr bildiradi: “Shoir va adib asarlarida milliy til boyligi, tovlanishlari aks etadi”. Qolaversa, qahramonlar portreti, peyzaj, udumlar kitobxonda o‘sha xalq, o‘sha millat haqida tasavvur uyg‘otadi. “Asarda

[4] Солижонов Й. XXI аср насри манзаралари. Мавзу, муаммо ва ечим // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2011.№ 4. – Б. 147.

zamon va makon tushunchasi bo‘lmog‘i tabiiy. Hozirda yer yuzida 1600 dan ortiq millat yashaydi. Har birining o‘z tili, libosi, urf-odatlari bor.

Deylik, o‘zbek do‘ppi kiysa, meksikalik sombrero kiyadi. Biroq milliylikning tashqi – zohiriy ko‘rinishi milliy xarakter teran tasvirlangan asarda, avvalo, odamning o‘ziga xos ruhiy olami aks etadi. Bunisi endi, ancha mushkul yumush”[5]. Yozuvchi milliy mentalitetga mos tarzda asar yozgan. Asarlarida xalqona ohang hukm suradi.

O‘zbek adabiyoti milliy ruh, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan badiiy asarlarga nihoyatda boydir. Badiiy asarda milliy koloritni ifodalovchi lingvistik, etnografik va madaniy unsurlar keng qo‘llanilgan bo‘lib, ular xalqning o‘ziga xos mentaliteti hamda madaniy qiyofasini yoritishda muhim vazifani bajaradi. Shu bois badiiy matnlarda milliy koloritning namoyon bo‘lish shakllarini tahlil qilish adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Milliy kolorit – har bir millatning o‘zligini saqlaydigan va sha’nini ulug‘laydigan urf-odat. Milliy koloritni o‘z asarlarida mujassamlashtirgan yozuvchilar sifatida Anvar Suyunov va Sanjar Tursunni ko‘rsatsa bo‘ladi. “Anvar Suyunov asarlarida koloritga xos so‘zlarga e’tibor qaratsak: “checha – kelinoyi, aka yoki tog‘aning turmush o‘rtog‘i”, “o‘ngir – sel yuvgan joy”, “suvliq – otning yugani”, “tutam – parcha, bo‘lak”, “sovliq – qari qo‘y”, “gujum – qayrag‘och”, “janda” – eski”, “xomcho‘t – chamalash” so‘zlarini misol keltirishimiz mumkin.

Anvar Suyunovning “Eshmonbek” va “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari”, Sanjar Tursunning “Muzaffar tong”, “Sunbulaning so‘nggi oqshomi” va “Oq ovulning Ozodasi” asarlari, Bibi Robia’ Saidovaning “Kakku ovozi”, Nurilla Choriyevning “Tashvishi yo‘q odamlar” kabi asarlarida xalqning maishiy turmushini milliy kolorit sathida tasvirlagan.

Tadqiqotchi B.Shukurova “Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzayev, E.A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida)” dissertatsiyasida asar poetikasi milliy kolorit bilan uyg‘unlikda aks etishi xususida shunday yozadi: “Badiiy adabiyot janrlari namunalarida, jumladan, hikoyada tabiat va inson munosabatlari tasvirlanib kelgan. Sharq lirikasida tabiat hodisalari, predmetlari lirik qahramon ruhiyatini aks ettirish, uning portretini yuzaga keltirish maqsadlarida qo‘llanib kelingan. Keyingi asrlar jahon so‘z san’atida epik tur tizimidagi hikoya, qissa, roman janrlarining badiiy rivoji jarayonida mazkur muammoni kengroq, teranroq ifodalash uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi”[6]. Ushbu masalalar yumor, satira, dramatizm yoki fojiaviy tasvirlar vositasida yoritilishidan qat’iy nazar, ularning kitobxon ongiga ta’sir ko‘rsatishi va muallif g‘oyasini yetkazib berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Nurilla Choriyev ijodida milliy

[5] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/o-tkir-hoshimov-qalamkash-so-zlar-ummonida-o-zinidengizchidek-erkin-his-etmog-i-kerak. – Pg. 2.

[6] Shukurova B. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzayev, E. A’zam, N.Eshonqul ijodi asosida). Filol.f.f.doktori. (PhD) diss... avtoref. – Buxoro, 2024. – B. 13.

xarakter, xalqning turmush tarzi va ruhiy olami tabiiy hamda hayotiy tasvirlarda aks ettirilganligini kuzatish mumkin.

Yosh yozuvchilar turli janrlarda koloritni aks ettiruvchi vositalardan foydalanib kelmoqda. Ijodkor badiiy asarda syujet liniyasi bilan bog‘liq xarakterni ifodalaydi. Nasriy asar o‘zbek adabiyotining rivoji va taraqqiyot omillarini ko‘rsatuvchi og‘ir karvon turi sanaladi. Shu masalaga yondashib M.Qo‘chqorova shunday yozadi: “Badiiy asarda aks etgan qahramonlar ruhiy holati masalasi yozuvchining individual metodologik uslubini namoyon etadi. Badiiy adabiyotda milliy kolorit muammosiga jahon adabiyoti, jumladan, o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy-nazariy jihatdan jiddiy ahamiyat berilgan”[7]. Nasriy asarda milliy kolorit ifodasi va milliylikni aks ettiruvchi omillar, poetik yangilanishlar kuzatilmoqda.

Voqelikni ta’sirli tasvirlash vositasining tarkibiy qismi bo‘lgan kolorit tushunchasi asar g‘oyasi, mazmuni, undagi davr masalasi, uslubi hamda muallifning shaxsiga bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. “Kolorit biror narsaning o‘ziga xos tomonlar majmuini ham anglatadi (davr, milliylik va boshqalar). Milliy kolorit har bir millatning o‘zligini saqlaydigan urf odat sanaladi.

Yosh yozuvchi Jasur Kengboyev “Har bir avlodning o‘z mavzusi bo‘ladi” maktub maqolasida shunday yozadi: “Anvar aka! Yaqinda “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari”ni o‘qib chiqdim. Mutolaa jarayonida ba’zi fikrlar tug‘ildi-yu, qo‘ng‘iroq qilib, sizga aytmoqchi bo‘ldim. Keyin fikrlarimni ikki enlik maktub shaklida bayon qilsam, boshqalar ham o‘qisa, ehtimol, yangi fikrlar ham tug‘ilar va ayrim tengto‘shlarimizga foydasi tegar, ijod maydoniga ot solayotgan do‘stlarimizda ozgina mulohaza uyg‘otib, shijoat qo‘zg‘ar, deya o‘yladim. Xullas, “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari” yaxshi to‘plam bo‘libdi. Nimasi yaxshi? Tili yaxshi. Personajlaringiz buqalamun emas: goh u shevada, goh bu lahjada sayramaydi. Hammasi ham ko‘kayi tuproq iskagan, zamindan oyog‘i uzilmagan, jaydari odamlar. Ayniqsa, bolalar ruhiyati yaxshi chizilgan: kitobiy emas, haqiqiy; dalaning, qir-adirlarning havosidan nafas olayotgan bolakaylarning ichki dunyosi durust tasvirlangan (men bu o‘rinda asosan “Ota va o‘g‘il” hikoyangizni nazarda tutyapman). Nazarimda, “Ikki tong orasi”, “Yo‘qchi” hikoyalaringiz to‘plamdagi eng baquvvat, hikoya janri talablariga to‘la javob beradigan, milliy ruhni yaqqol ko‘rsatadigan asar bo‘libdi. Savdolashayotgan dallolning “Ko‘nglingizga botmasin deb, mo‘ljalingizga yaqin oldim”, olomonning “Tiling tanglayingga yopishib qolganmi, guldirasang-chi!”, “(ulov) kuchdan qolgan qirchang‘iday imillab”, “Jag‘iga pichoq qayraydigan bo‘libdi” (“Ikki tong orasi”) kabi tasvir va ifodalar o‘quvchiga xush yoqishi tabiiy”[8]. Bunga o‘xshash fikrlar orqali mahalliy kolorit degan tushuncha yuzaga chiqadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yoshlar nasrida milliy koloritning badiiy talqini”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi fasli *“Yoshlar nasriga nazar: Anvar Suyunov asarlarida obrazlar tabiatiga xos belgilar”* deb nomlangan. Ikkinchi fasli esa *“Nurilla Choriyev hikoya va qissalarida obrazlarning ruhiy-psixologik tasviri”*

[7] https://kh-davron.uz/kutubxona-/uzbek/marhabo-qochqorova-nurilla-chori-hikoyalarida.html. – Pg.1.
[8] Кенгбоев Ж. Ҳар бир авлоднинг ўз мавзуси бўлади // Ёшлик. – Тошкент, 2016. № 3.

deya nomlanadi. Adabiyotshunoslikning obyekti badiiy adabiyot, badiiy adabiyotning tayanchi esa borliq, koinot. Adabiyotshunoslik badiiy asar mohiyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Unda ham ma’lum qoidalarga amal qilinishi lozim bo‘ladi.

Bugun yoshlarning ijodiga e’tibor qiladigan bo‘lsak ularning ham safi kengligi ayonlashadi. Qissa, esse, asosan, hikoyachilikda: Anvar Suyunov, Sanjar Tursun, Nurilla Choriyev, Jasur Kengboy, Sarvar To‘ra, Xoliyor Safarov, Umid Ali, Bibi Robia’ Saidova, Nargiza Asadova, Sherzod Halil, Asliddin Mustafoyev, Gulnoz Mamarasulova, Akmal Murodlarning chiqishlari kuzatilyapti. “Yoshlik” jurnalida shu ijodkorlarning nasriy asarlari chiqqan bo‘lib, ularga bir vaqtning o‘zida uchta ijodkorning munosabati bildirilgan. Yoshlarning o‘z tengqurlari ijodiga maktub shaklida bildirgan munosabatlari ham tanqidning bugungi adabiy jarayondagi bir ko‘rinishi deb, dadil ayta olamiz.

“Yoshlik” jurnalining 2016-yil 6-sonida Bibi Robia’ Saidovaning “Kakku ovozi” nomli hikoyasi bosildi. Hikoya to‘y bilan boshlanib, yana boshqa – bo‘lajak to‘y jarayoni bilan tugaydi. Asarning tugun va yechimi shunaqa. Bir-biriga uyqash voqealar rivoji esa kishida jamiyatda nozik xilqat sanalmish qizlarga bo‘lgan qarashlarimizni tozartiradi. Asarda Hanifa va shunga o‘xshash qizlarning muhabbatdagi zavolsiz kamoli nihoyatda go‘zal ifodalangan. Asar haqida taassurot maqolalar ham yozilgan. Adabiyotshunos Suvon Meliyev yozuvchi Ma’suma Ahmedova hamda tadqiqotchi Abdukamol Abdujalilovlar munosabat bildirishgan.
Hikoya haqidagi o‘z qarashlari bilan taassurot almashgan adabiyotshunos Suvon Meliyev: “Badiiy mantiq shu darajada qat’iy kuchki, hamisha o‘zini namoyon etadi”, – deydi. Munaqqid “Kakku ovozi”ni mantiqli hikoya degan xulosaga keladi. A.Suyunning “Qushlarga to‘la osmon” nomli she’riy va “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari” nomli nasriy kitoblari o‘z kitobxonlarini topib ulgurdi. Keyingi “G‘o‘bdintog‘ hikoyalari” dan 14 ta hikoya va 2 ta ocherk o‘rin olgan. Bular: “Ota va o‘g‘il”, “Ikki tong orasi”, “Yo‘qchi”, “Bolalikning so‘ngi kuni”, “Qo‘shburun”, “Oqtirnoq”, “Ro‘zaning birinchi kuni”, “Tomosha”, “Majlisboshi”, “Kaltabaqay”, “Tarsaki”, “Hakkaning o‘ligi”, “Tazarru”, “Akamga maktub” hikoyalari hamda “Mangu qo‘shiq” va “Bir kun ham umr, ming kun ham” kabi ocherklaridir.

Ijodkorning yana bir hikoyasi “Ikki tong orasi” deb nomlanadi. Bu asar “Ota va o‘g‘il”ning mantiqiy davomi. Chunki bunda ham zamon nuqtayi nazaridan ikki tong orasi, yigirma to‘rt soat, makon jihatidan esa o‘sha o‘zining sog‘lom ongi va teran aqli bilan ish ko‘radigan, mashaqqatli mehnatni kundalik tarziga aylantirib jaydari odamlari bilan ajralib turadigan G‘o‘bdintog‘ madh etiladi. Asar ibtidosi va intihosi shunday jumlalar bilan boshlanib va shunday tugallanadi. “G‘ira-shira tong qorong‘usi. Osmonga tosh otsa payqash qiyin… Ular biyaning narxini xomcho‘t qilib, bepoyon kengliklar ichida tonggi g‘ira-shiraga singib boradi…”[9]. Bu o‘rinda tabiat tasviri fikrimizni tiniqlashtirib tozartiradi. Bu asarda ham peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida o‘z vazifasini bajara olgan. Badiiyatda peyzajning

[9] Суюнов А. Ғўбдинтоғ ҳикоялари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 16.

oʻrni va sifati farqlanadi va epik asarlarda ancha keng tasvirlanadi. “Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir”[10].

Asarda voqealar real, jonli va oʻqirmanni oʻz olamiga kiritib, asar fabulasida teng harakatlantiradi (ruhan ichkariga olib kiradi). Bunda kundalik tashvishlar:

bozor, toʻy, kasalxona bilan bogʻliq voqealar aks etadi. Bu tasvirlar asar qahramoni Qoraqul akaning hayot qiyinchiliklari oldida tushkunlikka tushmay, oʻzining mardona harakatlari orqali vaziyatdan chiqishi ancha koʻtarinki ruhda aks etgan. Hikoyada xalq maqollari va aforizmlarining ham oʻrni bilan ishlatilishi e’tiborni tortmasdan qolmaydi. “It boʻl, qush boʻl – koʻp boʻl, Qarz soʻraganning bir beti qora, bera olmaganning ikki beti, Odam odamga el boʻladi, pul yoki martaba ellik qilmaydi, Oʻgʻillinikida bir kun toʻy, qizlinikida oʻn kun toʻy” kabi ibratli fikrlar ham ijodkorning soʻz qoʻllash mahoratining qay darajada ekanligini koʻrsatib bergan.

Nurilla Choriyev hikoyalarida milliy koloritni shakllantiruvchi muhim badiiy vositalardan biri antroponimik birliklar, xususan, xalq orasida qoʻllanadigan laqablarning faol qoʻllanishidir. Asarda uchraydigan *Eshboy eshchi, Joʻlpon xum, Toshman tuya, Hayit langi, Haldov poson, Orol kar, Eson oqsoqol, Tolmas morboz* kabi nomlar, shunchaki, personajlarni farqlash vositasi emas, balki ularning kasbi, jismoniy belgisi, ijtimoiy mavqeyi yoki hayotiy tajribasini ifodalovchi etnomadaniy belgilar sifatida namoyon boʻladi. Bunday nomlash usuli xalq ogʻzaki ijodi va qishloq turmushiga xos an’anaviy tamoyillarning badiiy matndagi ifodasidir. Natijada personajlarning milliy muhitga mansubligi va ijtimoiy qiyofasi tabiiy hamda ishonarli tarzda ochiladi.

Adib yaratgan obrazlar xalqona dunyoqarash, ajdodlar tajribasi va milliy axloqiy mezonlar ta’sirida shakllangan qahramonlardir. Ularning hayotiy qarashlari, muomala madaniyati va ruhiy olami bobolar oʻgiti, buvilar nasihati hamda xalqona donishmandlik bilan uygʻunlashgan holda tasvirlanadi. Shu jihatdan yozuvchi qahramonlari individual xarakter bilan bir qatorda milliy tafakkurning badiiy timsoli sifatida ham e’tiborni tortadi.

Asarda voqealar rivoji hayotiy realizm tamoyillariga asoslanib, qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy iztiroblari tabiiy psixologik tasvir vositasida ochib beriladi. Bozirgan chavandozning orzu-intilishlari, tashvishlari va hayotiy tajribasi kitobxonni bevosita badiiy muloqotga chorlaydi. Shu sababli hikoya nafaqat individual qismat tasviri, balki xalq hayotining umumlashgan badiiy modeli sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Asarning badiiy ta’sir kuchi shundaki, unda milliy kolorit etnografik tafsilotlar, xalqona til, obrazlar xarakteri va ruhiy kechinmalar uygʻunligida namoyon boʻlib, kitobxonning estetik idroki va ma’naviy olamiga chuqur ta’sir koʻrsatadi. “Qizgʻaldoqning adogʻidan koʻndalangiga Tagsaroy oqadi. Tagsaroyning kungay beti qari lalmi (el shunday aytadi), qiblasi suvot – tayoq

[10] Қуронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғат. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 221.

suqsang barg yozadi” kabi xalq orasida qo‘llanilgan shevaga oid so‘zlar mavjudki, hikoya ta’sirchanligini va xalqonaligini oshira borgan. Ko‘rinib turibdiki, “kungay bet, qari lalmi” bu jumlada oftob nuri tushadigan, suvsiz joyga yomg‘ir yog‘ishidan ko‘karadigan o‘simliklar misol qilib olingan.

“Qiblasi suvot, tayoq suqsang barg yozadi”. Qiblasi suvot, ya’ni qibla tomoni suvlik, lalmi joy bo‘lsa-da cho‘pning barglab daraxt bo‘lishini ijodkor noan’anaviy shaklda tasvirlaydi. Yomg‘ir yetarli yoqqanidan yerda namlik yetarli ekani, daraxt eksa ham ko‘karishi nazarda tutilmoqda. Ijodkor asarida tasviriy ifodalardan ham unumli foydalangan. Yozuvchi nutqida “Muborak oshyonidan sudralib chiqqan chavandoz shu chaylani o‘ziga vatan tutgan”. Bozirgan chavandozning chaylani yashaydigan joy qilgani haqida yozgan. Muborak oshyoni, deya doimiy yashaydigan uyi nazarda tutilyapti. Sudralib chiqdi, hayot tashvishlaridan charchaganligiga ishora qilyapti. Chaylani o‘ziga vatan tutgan, Chayla dalada to‘rt tomoni ustun ko‘tarib usti qismiga xivich va o‘t-o‘lanlar tashlanishidan soya qilinadigan joy. Vatan tutdi, ya’ni yashash uchun muqim joy qildi ma’nosida ishlatilgan. Asar yozishda xalq nutqida uchraydigan ibora va so‘z birikmalaridan yetarli foydalanilgan.

“O‘g‘li keldi. O‘tindi…

Kelini keldi. Yolvordi…

Qizi keldi. Yig‘ladi…”

Yozuvchi bu o‘rinda qahramonning keksalikka xos bo‘lgan injiqlik va qaysarlik xarakterini ochib bergan. “Bozirgan chol o‘zini misli ko‘lvar chog‘laydi.

Mezon quyoshida toblanib, shamoliga ko‘krak kermoqchi bo‘ldi. Uyga qaytmadi…” Ijodkor bu metafora orqali qahramonning ruhiy holatini ochib bergan. Mezon shamoliga toblangan, karaxt holatdagi ko‘lvar ilonga qiyoslagan. “…Qush cho‘qimaydigan, jonliqqa et bitirmaydigan achchiq piyozning boshida nima bor, bu “itkasal”ga”. Hikoyada uchraydigan bu jumla xalqona tafakkur va milliy nutqning yorqin namunasi sifatida e’tiborni tortadi. Ushbu ifodada muallif piyozning iqtisodiy yoki amaliy ahamiyatini, qahramonning ruhiy holatini xalqona kinoya vositasida ochib beradi. Xalq tasavvurida qovun va tarvuz kabi poliz ekinlar pishish davrida qushlar va boshqa jonivorlardan asrash maqsadida dala boshida chayla qurib qo‘riqlanadi. Piyoz esa bunday parvarish va qo‘riqlashni talab qilmaydigan ekin hisoblanadi. Shu bois Bozirgan chavandozning piyozpoya boshiga ko‘chib borishi atrofdagilar nazarida mantiqsiz va asossiz harakat sifatida baholanadi.

Nurilla Choriyev asarlarida xalqimiz orasida bugungi kunda ham ishlatilgan so‘zlarnig darajasi kitobxon uchun qiziqarli va uni o‘ziga rom etadi. “Lo‘litopmaslik chol” hikoyasida Qulmat podachi obrazi asarning bosh qahramoni sifatida olingan. Ijodkor asarining “Podaning ortidan tayog‘ini sudrab bir chiqqanda oylab ketadigan qizg‘aldoqlik Qulmat podachi peshonasi tirishib, burushib, burni muyloviga oqib, soqolini ko‘zyoshlari yuvib, eshonlarning poyqadamiga shirboz-bo‘rdoqi,

olaboshqorabosh qo‘ylarni so‘yib, mullalar etagini ko‘ziga surtib yurdi”[11], shu jumlalarida Qulmatning hayotini tasvirlagan. Xalq orasida “Peshonasi tirishib” iborasi bor. Ya’ni, hayoti hijron va qiyinchilikda o‘tayotgan insonga nisbatan ishlatiladi. “Burushib” bu yerda hayotining yaxshi tomonga emas, aksincha, yanada murakkabroq kechishiga ishora qilmoqda. Qulmatning turmush o‘rtog‘i Zubaydaning hayotini “… qirmizi olmayonoq yuzini so‘lg‘inlik mahv etganda taqimini o‘pgan sochiga oq oralab tirsagiga yetmay qoldi” tasviri orqali ifodalaydi. Hikoyada Zubayda obrazi orqali inson umrining fojiaviy qirralari nozik psixologik detallar vositasida yoritiladi. Muallif qahramonning “qirmizi olmaday yuzi”ning so‘lg‘in tortishini tashqi portret detali sifatida ham uning ichki ruhiy kechinmalari va hayot sinovlari qarshisidagi ojizligini ifodalovchi ramziy unsur sifatida tasvirlaydi. Xususan, yuz rangining o‘zgarishi, soch bilan bog‘liq tasvirlar va tashqi qiyofadagi o‘zgarishlar qahramon hayotining so‘nggi bosqichiga yaqinlashayotganini anglatuvchi poetik detallar vazifasini bajaradi. Bu jihatlar yozuvchining psixologik tasvir yaratish mahoratini namoyon etadi.

Asarda Qulmat va Zubayda obrazlari uzoq yillar kutib erishilgan farzand baxtining qisqa fursatda fojiaga aylanishi orqali tasvirlanadi. Keksalik chog‘ida dunyoga kelgan norasida go‘dakning vafoti ota-onaning ruhiy olamida chuqur iz qoldiradi. Muallif Qulmatning dastlabki iztirobi, alamli nidosi, keyinchalik esa hayotning og‘ir sinovlariga moslashib borishi natijasida fe’l-atvorida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni psixologik izchillik asosida ochib beradi. Shu tariqa qahramon ruhiyatidagi fojiaviy kechinmalar badiiy umumlashtirish orqali hayot haqiqati darajasiga ko‘tariladi.

Nurilla Choriyev ijodida milliy an’analarning badiiy davomiyligi syujet qurilishi, obrazlar tizimi va kompozitsion yaxlitlikda yaqqol namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hikoyalarida voqealar rivoji, ko‘pincha, tugun nuqtasidan boshlanib, kitobxonni asar ichki konfliktiga bevosita olib kiradi. Syujetning ichki psixologik dinamika va tashqi voqealar rivojiga asoslangan shakllari o‘zaro uyg‘unlashib, qahramonlarning ruhiy olamini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Natijada badiiy konflikt voqealar zanjiri hamda inson xarakteri va ma’naviy tanlovining estetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertassiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek yoshlari nasrining badiiy takomili xususida”** deb nomlanib, birinchi fasli *“Sanjar Tursunov va Bibi Robia’ Saidova nasrida adabiy makon va zamonning individual shakllari hamda badiiyati”* hamda ikkinchi fasli *“Yosh nosirlar ijodida milliy qadriyatlarning estetik talqini”* deb nomlanib, unda milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar o‘z o‘rnida qo‘llanilgan.

Bugungi nasriy asarlarida koloritni ta’minlovchi bir qancha poetik belgilar bor. Yoshlar nasrida milliy ruh poetik yangilanishi dunyo adabiyoti tajribalarini ham puxta egallaganida ko‘rinadi. Nurilla Choriyev qalamga olgan voqealari hayotiy hodisalarni, ziddiyatlari bilan kitobxonga yetkazadi. Asarlarida yaxshi kunlar va

[11] Чориев Н. Ташвиши йўқ одамлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2019. – Б. 4.

yomon kunlar sodda tilda yozilgan. Hikoyalari inson qalbiga to‘g‘ri qo‘l soladi. To‘plamdagi qahramonlar muayyan bir vaziyatda o‘z irodasiga, e’tiqodiga ishonadi, sevgilisidan kelgan xat qahramonni hayron qoldiradi. Ozoda Qaynarni sevgani bir tasodif. Shu tasodif zamirida hayotning muayyan haqiqati, ziddiyati va falsafasi bo‘y cho‘zadi. Abrorga turmushga chiqqan bo‘lsa-da, Ozodaning ko‘nglida Qaynarga bo‘lgan munosabat tasviri juda nozik ruhiy kechinmalardan iborat. Qaynar, Ozoda bir umr sevgan, garchi, oliy o‘quv yurtiga kirgan bo‘lsa-da dilining tub-tubida asrab kelayotgan oddiy yigit. Abror esa Ozodaning turmush o‘rtog‘i, uni umrining oxrigacha sevadi. Inson ruhiyati murakkab. Ozoda Qaynarni unutolmasligi ichki psixologik jarayon. Ozodaning ko‘ngliga ko‘mgan xayolidagi insoni Qaynar bo‘lsa ham, Abror bilan yashashi o‘zbek qizlarining qoniga singan iboning ko‘rinishi. Ko‘ngil savdosi boshqa-yu, umr savdosi boshqa ekanligiga ko‘nib yashaydi. Bu kabi ruhiy holat o‘zbek qizlarining iffati ifodasidir.

Nurilla Choriyev asarlarida badiiy psixologik tasvirning o‘rni benihoya kattadir. Ayniqsa, “Muzaffar tong” to‘plamida psixologik tasvir tushunchasi ostida milliy ruh, asar qahramonlarning ichki olamiga singib ketganiga guvoh bo‘lasiz. Qahramonlarning ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlanishi millatimizning psixologik ruhiyatini aks etgan va ular orqali ifodasini topgan. “Muzaffar tong” asarining mohiyatini esa, qahramon ruhiyatiga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda o‘zbek milliy ruhining namoyon bo‘lishini ko‘ramiz.

“Muzaffar tong”ni o‘qib, milliy mentalitetni o‘zida aks ettirgan badiiy asar olamiga kirganligingizni his qilasiz. “Muzaffar tong”da milliy ruh tasviri anchagina chuqur va ko‘p qirralidir. Ya’ni unda ruhiy tasvir o‘z maromida aks etgan. Ruhiy tahlil kuchli bo‘lgan bu badiiy asarda xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo‘ysundirilgan va kitobxonga soddalik bilan yetkazib berilgan.

“Muzaffar tong”da tasvirlangan peyzaj, obrazlar xarakteri o‘quvchida qadriyatlarga xos milliy g‘ururni dilida jo qilishi tabiiydir. Hikoyalardagi syujetlar bilan tanishgan kitobxon o‘zbek millatga tegishli bo‘lgan urf-odatu an’analarga yuzlanadi. Badiiy asarning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi tursa, bu hikoyalarda o‘quvchi asarni tushunishda aslo qiyinchilikka duch kelmaydi. O‘quvchi asarni o‘qish asnosida mentalitetimizga xos bo‘lgan ruhiy tasvirga duch keladi. Bu xarakter badiiy asardagi qahramonlar ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, o‘y-xayollari, ruhiy dunyosini anglashda qo‘l keladi.

Sanjar Tursunning “Ovulda bir oqshom”, “Chavandoz ko‘ngli”, “Muzaffar tong”, “Ismat bobo”, “Omon podachi”, “Taqa”, “Seni yaxshi ko‘raman”, “O‘pich” kabi hikoyalar shu to‘plamdan o‘rin olgan. Lekin milliy tasvir ifodasini turli xil ko‘rinishlarda namayon etganiga guvoh bo‘lamiz. “Ovulda bir oqshom” hikoyasini o‘qir ekanmiz, asarda ishlatilgan so‘z qudrati o‘z-o‘zidan e’tiborni tortadi.

